

INGLIZ VA O`ZBEK LINGVOMADANIYATIDA “TO`Y” KONSEPTINING IFODALANISHI

Tursunov Mirzo Maxmudovich.¹

Sayfiyeva Madina Saydullo qizi²

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o`zbek tillarida “to`y” konsepti, uning leksik maydonida o`zaro o`xshash va farqli jihatlarining ma`no mazmuni to`g`risida so`z boradi. Shuningdek, lingvomadaniyatga oid tahlillar orqali ikki xalqning to`y marosimlariga oid etnografik ma`lumotlar haqida ham fikr bildirilgan.

Kalit so`zlar: konsept, to`y konsepti, leksik maydon, milliy madaniy birliklar, lingvokulturologik tilshunoslik, etnografiya.

Ma`lumki, olamning lisoniy manzarasi tahlilida insonni tafakkurga oid milliy madaniy unsurlardan holi tarzda tasavvur qilib bo`lmaydi. Bugungi kunda, tilshunoslik ilmida yangi sohalarning vujudga kelishi matn, til muammolari bilan bog`liq masalalarning yechimini topishda katta samara bermoqda. Jumladan, hozirgi kun tilshunoslari semantika, kognitologiya, lingvokulturologiya, psixolingvistika, sotsiolingvistika kabi ko`plab til o`rganishga oid yangi yo`nalishlarga tayanib ish ko`rmoqdalar. Shulardan eng dolzarb ahamiyatga ega bo`lganlaridan biri, “til va madaniyatning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o`zida aks ettiradigan hodisalar - til va madaniyatni birgalikda o`rganadigan alohida ilmiy soha - lingvokulturologiyadir” [4, 15]. Insonning bilish faoliyati bilan shug`ullanadigan kognitiv lingvistikaning markaziy tushunchalaridan biri bo`lgan “konsept” atamasi lingvokulturologiyada ko`p qo`llaniladigan unsur ekanligi, P. Dilbarxon Abdullajon qizining “Zamonaviy tilshunoslikda konsept tushunchasi” maqolasida ko`rsatib o`tilgan [3, 78]. Kognitiv tilshunoslik – til va ong o`rtasidagi munosabatlar muammolarini, dunyoni konseptualashtirish va turkumlashtirishda tilning rolini, kognitiv jarayonlarda va inson tajribasini umumlashtirishda, insonning individual kognitiv qobiliyatlari bilan bog`liqligini, til va ularning o`zaro shakllarini o`rganadigan tilshunoslik yo`nalishi. Turkumlashtirish deganda olingan bilimlarni tartibga solish jarayoni tushuniladi, ya`ni yangi bilimlarni inson ongida mavjud bo`lgan ma`lum sarlavhalar bo`yicha taqsimlash va ko`pincha bu shaxs ona tili bo`lgan til toifalari bilan belgilanadi. Konseptualizatsiya – bu real yoki xayoliy olamning ba`zi bir hodisasining kognitiv xususiyatlari to`plamini aniqlash jarayoni bo`lib, ular insonga ushbu hodisa haqida biroz aniqlangan tushuncha va g`oyaga ega bo`lish, yoda tutish va yangi ma`lumotlar bilan to`ldirish imkonini beradi va uni boshqa hodisalardan ajrata oladi. Umuman olganda, kognitivizm – bu fikrlash jarayonlarini boshqaradigan, umumiy tamoyillarni o`rganishni birlashtirgan fanlar majmuidir. Shunday qilib, til fikrlash jarayonlariga kirish vositasi sifatida taqdim etiladi. Insoniyat tajribasi, uning tafakkuri aynan tilda muqimdir, til – kognitiv mexanizm, ma`lumotni maxsus kodlashtiradigan va o`zgartiruvchi belgilar tizimi. Kognitiv tilshunoslikning paydo bo`lishi nafaqat tilshunoslik tarixi, balki kengroq nuqtai nazardan, kognitiv tadqiqotlarning rivojlanishi va kognitiv fan deb ataladigan fanning paydo bo`lishi bilan ham belgilandi.

^{1,2} Buxoro davlat universiteti



Kognitiv tilshunoslikning rasmiy “tug‘ilishi” 1989-yil bahorida bo‘lib o‘tgan Xalqaro lingvistik simpoziumga to‘g‘ri keladi. Germaniyaning Duisburg shahrida kognitiv tilshunoslik bo‘yicha birinchi xalqaro konferensiya bo‘ldi. Simpozium ishtirokchilari Xalqaro kognitiv tilshunoslik assotsiatsiyasini tuzdilar. (International Cognitive Linguistics Association), kognitiv lingvistika jurnaliga asos solgan va kognitiv tilshunoslik tadqiqotlari monografiyalari seriyasini yaratgan, keyinchalik ushbu yo‘nalishning taniqli vakillarining asarlarini nashr etgan. Biroq, mohiyatiga ko‘ra, kognitiv lingvistika avvalroq va 1980-yillarning oxirlarida paydo bo‘lgan, bu uning tug‘ilgan davri emas, balki gullagan davri, tegishli mafkura ruhida yaratilgan ko‘plab asarlar nashr etilgan davr. Kognitiv tilshunoslikda biz til va tafakkur o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni o‘rganishning yangi bosqichini ko‘ramiz, bu muammo asosan rus nazariy tilshunosligiga xosdir. Bunday tadqiqotlarni P. Brok, K. Vernik, I. M. Sechenov, V. M. Bekhterev, I. P. Pavlov va boshqalar boshlashgan. Kognitiv tilshunoslikning hozirgi kungacha aniqlangan quyidagi yo‘nalishlarini ko‘rishimiz mumkin:

Kulturologik – madaniyat elementlari sifatidagi tushunchalarni turli fanlar ma‘lumotlari asosida o‘rganish. Bunday tadqiqotlar odatda de-fakto fanlararo bo‘lib, faqat tilshunoslik bilan bog‘liq emas, ular tilshunoslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin, bu bizga ushbu yondashuvni kognitiv tilshunoslik doirasida ko‘rib chiqishga imkon beradi, bu holda til faqat tushunchalar haqidagi bilim manbalaridan biri sifatida ishlaydi, masalan konseptsiyani tavsiflash uchun ushbu tushunchani nomlovchi so‘zning etimologiyasi haqidagi ma‘lumotlardan foydalaniladi.

Lingvokulturologik – til birliklari tomonidan milliy til madaniyatining elementlari sifatida atalgan tushunchalarni milliy qadriyatlar va ushbu madaniyatning milliy xususiyatlari bilan bog‘liq holda o‘rganish: “tildan madaniyatga” yo‘nalishi.

Mantiqiy – tushunchalarni ularning lingvistik shakliga bevosita bog‘liqliksiz mantiqiy usullar bilan tahlil qilish.

Semantik-kognitiv – tilning leksik va grammatik semantikasini tushunchalar mazmuniga kirish vositasi sifatida, ularni til semantikasidan konseptsiya sohasiga modellashtirish vositasi sifatida o‘rganish.

Falsafiy va semiotik - belgining kognitiv asoslari o‘rganiladi.

Ushbu sohalarining har birini zamonaviy tilshunoslikda allaqachon yetarlicha shakllangan deb hisoblash mumkin, ularning barchasi o‘ziga xos uslubiy tamoyillarga ega, ularning barchasi birinchi navbatda tushunchaning ong birligi sifatidagi nazariy g‘oyasi bilan birlashtirgan va ularning barchasida o‘z tarafdorlari bor, kognitiv tilshunoslar, ular juda taniqli ilmiy maktablar tomonidan ifodalanadi. Charlz Fillmor, Jorj Lakoff, Ronald Langaker, Leonard Talmi, Aleksandr Kibrik kabi mashhur kognitiv tilshunoslar ushbu sohalar ustida ko‘plab ilmiy ishlar olib borganlar.

Tilshunoslikda ko‘p qirrali tushunchalardan biri konsept lotin tilidagi “konceptus” <tushuncha> so‘zining so‘zma-so‘z tarjimasini bo‘lib, XX asrning birinchi choragida rus faylasufi S. Askaldov tomonidan ilmiy munosabatga kiritilgan. O‘tgan asrning 80-yillarigacha tushuncha so‘ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo‘lsa, 90-yillardan boshlab qo‘llanila boshladi, bugungi kunda esa keng qamrovga ega ekanligini kuzatish mumkin. Shuningdek, konsept termini matematik logika, madaniyatshunoslik, psixologiya kabi fanlarda ham faol qo‘llanilmoqda. Y. S. Kubryakova ta‘kidlaganidek, “konsept” termini tafakkur, anglash, ma‘lumotlarni saqlash va qayta ishlash kabi muammolar bilan shug‘ullanuvchi kognitiv psixologiya hamda kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya fanlari uchun “soyabon” vazifasini o‘taydi. Til inson ongida konseptni ifodalovchi va shakllantiruvchi vositalardan biridir. Konsept inson aqliy dunyosidagi madaniyatning asosiy yacheykasidir. Konseptlar inson ongida nafaqat so‘zning lug‘aviy ma‘nolari asosida, balki shaxsiy hamda butun bir xalqning madaniy-tarixiy tajribasidan kelib chiqib paydo bo‘ladi. Tajriba qancha boy bo‘lsa, konseptning chegarasi shunchalik



keng bo`ladi. Aynan shunday holatda konsept o`zini har tomonlama namoyon eta oladi. Zotan, konsept dunyoni bilish va u haqida o`z tasavvuriga ega bo`lish demakdir. Oddiy tushuncha va konsept o`zining farqli va o`xshahs tomonlariga ega. Tushuncha moddiy borliqdagi narsa-hodisalarning eng muhim belgilarini ifodalasa, konsept ularning yuzaki (o`ta muhim bo`lmagan) tomonlarini ham ifodalay oladi. Tushuncha so`z orqali ifodalanadi, lekin tushuncha va so`z aynan bir narsa emas. Tushuncha biror sinfga kiruvchi predmetlarni umumlashtirish va bu predmetning umumiy va farqlovchi belgilari majmuasi asosida shakllanadi. Konsept mental tuzilma bo`lib, u turli tarkibdagi va ko`rinishdagi bilimlar kvanti yoki umumlashmasidir. Konseptlar inson ongida shakllanadigan turli kategoriyalarning asosini tashkil qiladi, konseptning asosini tashkil qiluvchi predmet obrazi yetarlicha aniq va ikkilamchi o`rinni egallagan bo`laklari mavhumlikka ega bo`lishi bilan birgalikda, ular yagona negiz atrofida o`zaro munosabatga kirishib birikadilar. Shu sababli konsept tarkibining tizimiy xarakterga ega ekanligini e`tirof etish ma`quldir. Uning tizimiy xususiyatlari tuzilish jihatidan murakkab tartibli bo`lishida va bir butun mental tuzilma sifatida idrok qilinishida namoyon bo`ladi. Konseptning lisoniy moddiylashuv jarayoni yana bir muhim mental bosqichni bosib o`tadi. Voqelikning tafakkurdagi umumlashgan in`ikosi obrazning mantiqiy “qayta ishlanishi” natijasida hosil bo`lgan konsept lisoniy “libos” olishidan oldin ushbu “libos”ning tasavvurdagi aksi yoki modeli yuzaga keladi. Lisoniy voqeanish rejasi paydo bo`lgan zahotiy oq uni amalga oshirish uslubi izlanadi. Reja hamda “so`zsiz” model nolisoniy yoki “botiniy nutq jarayonida yuzaga keladi. Botiniy nutqning yuzaga kelish muammosi bilan shug`ullangan psixolog va psixolingvistlar ushbu hodisani turlicha talqin qilib kelishmoqda. Ulardan ayrimlari botiniy nutqni oddiygina qilib, o`z-o`ziga gapirish bilan tenglashtirsalar, boshqalari uni alohida tashqi (zohiriy) nutqdan butunlay farq qiluvchi hodisa sifatida ta`riflaydilar. Biroq, eng muhimi, botiniy nutq zohiriy nutqning asosini, negizini tashkil qilishini olimlar e`tirof etib kelishmoqda. Darhaqiqat, nutqiy faoliyat ijro (talaffuz) va eshitish (mazmun idroki) bosqichlaridan tashqari yana bir bosqichni o`z ichiga oladi. Bu tashqi yoki zohiriy nutqni rejalashtirish bilan bog`liq yashirin jarayondir. A. R. Luriya aytganidek, bo`lg`usi nutqiy harakat niyat va rejadan boshlanadi va ushbu reja nutqiy faoliyatning “ichki harakatchan sxemasi” vazifasini o`taydi. Ichki sxema o`ziga xos dasturlash xizmatini o`tab, lisoniy nomlanishi lozim bo`lgan konseptning mundarijasida ujassamlangan asosiy mazmuniy xususiyatlarini aks ettirmog`i darkor. Botiniy nutq konseptning lisoniy voqeanishini ta`minlovchi jarayondir. Ushbu jarayonda bo`lg`usi lisoniy birlikning tuzilishi va mundarijasi shakllanadi. A. A. Leontyev lisoniy birlikning botiniy dasturi va qolipi muhim mazmun mazmun ko`rsatkichlaridan tarkib topishini va bu ko`rsatkichlar nutqiy tuzilma uchun muhim bo`lgan subyekt, predikat, obyekt, bo`laklarining muqobil “izi”dan iborat bo`lishini isbotlashga harakat qilgan edi. Botiniy nutqning eng asosiy xususiyati uning sharoitida lisoniy birlik mazmunan to`liq shakllanishi va turli ma`noviy o`zgarishlar bosqichlarini (ma`no kengayishi, urakkab konseptlarni ifodalash uchun ma`no bo`laklarini bir-biriga birlashtirish kabi) bosib o`tishi bilan bog`liq ekanligini L. S. Vigotskiy ham ta`kidlagan. Botiniy nutq jarayonida konsept, birinchidan, ma`lum bir mazmun shaklini olsa, ikkinchidan, lisoniy belgi tanlovi bosqichiga tayyorgarlik ko`radi. Xuddi shu hozirlik lisoniy moddiylashuvdan oldingi harakatlar vositasida nominativ birlikning denotativ asosini mazmunan boyitadi. Bu bilan lisoniy tanlov imkoniyati ham kengayadi. Lisoniy tanlov esa alohida ko`rinishdagi lisoniy tafakkur faoliyati natijasidir. Bu faoliyatning ko`chishi til o`zlashtirilishi va nutqiy qobiliyat hosil bo`lishi jarayonlariga mos ravishda kechadi. Ma`lumki, inson til va oddiy olamni bir xil uslubda hamda bir xil yo`nalishda o`zlashtiradi. Moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet-hodisalar haqida tushuncha tug`ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna - konsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishini taqozo qiladi. Bu xildagi ko`p bosqichli lingvopsixik faoliyatning natijali (natija muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo`lishidan qat`iy nazar)



kechishida asosiy rolni lisoniy xotira o`ynaydi. Konsept bir tomondan insonning mental dunyosiga kirs, boshqa bir tomondan inson konsept yordamida madaniyatga kirib, unga ta`sir ham ko`rsatishi mumkin. Jumladan, N. Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo`llarini izlab”, L. Uzoqovanning “O`zbek va ingliz tillaridagi “to`y” leksemasi bilan bog`liq birliklarning lingvokulturologik tadqiqi” kabi maqolasi, ingliz olimlaridan Bradford Jones yetti yillik izlanishlari davomida “to`y” konseptiga oid birliklarning ro`yxatini ommaga tushunarli tarzda tuzib chiqqan. Taniqli buyuk adibimiz Tohir Malik tadbiri bilan aytganda: “To`y - orzu-havaslariga yetilgan saodatli damlardir” [5]. To`y o`zbek madaniyatida millat bilan bog`liq tarzda qadimdan mavjud bo`lgan, xalqning turmushi bilan bog`liq o`ta e`zozlanadigan urf-odatlarini o`z ichiga olgan, qadriyat darajasiga ko`tarilgan muhim marosimdir. “O`zbek tilining izohli lug`ati” da: “to`y konsepti ko`pincha bazim, tomoshalar bilan o`tkaziladigan ba`zi marosimlarning umumiy nomi. 1. Qudalar o`rtasidagi kelishuvga muvofiq kuyov tomonidan qiz tomonga beriladigan pul, sarpo, masalliq va shu kabilar majmui. 2. Biror voqea-hodisaga bag`ishlab ziyofat va o`yin- kulgular bilan o`tkaziladigantantanalalar” ekanligi ko`rsatib o`tilgan [2].

To`y konseptini ingliz va o`zbek tillarida semantik strukturasi hamda lingvokulturologik jihatdan tahlil qilib quyidagi o`xshashliklar va farqlar yuzaga kelganligini kuzatishimiz mumkin:

O`xshashliklar:

1) unashtiruv marosimi - engagement party; 2) nikoh to`yi - wedding ceremony; 3) aqiqa to`yi - a sip and see party; 4) xatna to`yi - newborn circumcisions (judayam shaxsiy fikrga qarab xatna qilinadi yoki yangi tug`ilgan chaqaloqda biror kasallik bo`lsa ham bu marosim o`tkaziladi); 5) uy to`yi - housewarming party; 6) ekin to`yi - harvest festival...

To`y konseptining nikoh to`yi bilan bog`liq leksik maydonidagi o`xshash va farqli jihatlar, o`xshashliklar:

- 1) kelin va kuyov - bride and groom;
- 2) qo`lini so`ramoq - to proposal;
- 3) to`y - wedding;
- 4) kuyovjo`ra - bestman;
- 5) kelinning do`sti - bridesmaid;
- 6) nikoh va`dasi - marriage vows...

Farqlar:

Ingliz madaniyatida qadimdan mavjud:

- 1) flower girl - to`y kuni kelin-kuyov yonidan gul sochib ketuvchi qiz;
- 2) ring bearer - uzuklarni olib chiqadigan odam, odatda yosh bolalar;
- 3) wedding bells - to`ydan so`ng ikki yosh rasman oila qurganligini ifodalovchi qo`ng`iroqlar...

O`zbek madaniyatida mavjud:

- 1) kelin salom - to`ydan so`ng kelinni kelganda ko`r, sepini yoyganda ko`r ma`nosida o`tkaziladigan marosim [1];
- 2) charlari - to`ydan so`ng o`tkaziladigan, kelin va kuyovning ota-onalari bir-birlarini yanada yaqindan tanishlari va suhbat qilishlari uchun o`tkaziladigan marosim... va shu kabi ko`plab ham tilshunoslik ilmi uchun, ham ikki xalq vakillariga qiziqarli ma`lumotlarni ko`rishimiz mumkin.

Ingliz madaniyatida to`y marosimi bilan ma`no jihatidan bog`liq bo`lgan bir nechta frazeologik birliklar, maqollar, iboralar va mashhur so`zlar mavjud:

- 1) As soon as I saw you, I knew a grand adventure was about to begin!
- 2) I want to be your favourite hello and your hardest goodbye!
- 3) You don` t marry the person you can live with - you marry the person you can` t live without!



- 4) To love and be loved is to feel the sun from both sides!
- 5) Love doesn't consist of grazing at each other, but in looking outward together in the same direction!
- 6) Where there is love, there is life!
- 7) The highest happiness on earth is the happiness of marriage!
- 8) Happiness and confidence are the prettiest things you can wear on your wedding day!
- 9) Wedding vows should include that do you promise to always help him or her find his or her stuff that is right in front of him or her!
- 10) Be completely humble and gentle, be patient, bearing with one another in love!

O'zbek madaniyatida ham qadimdan to'y marosimi bilan bog'liq bir qancha iboralar, maqollar va frazeologik birliklar mavjud:

- 1) Kelinning keldisi yaxshi, to'yning bo'ldisi yaxshi.
- 2) To'y ginasiz bo'lmas.
- 3) To'y siltovi bilan to'n bitar.
- 4) To'y - to'nliniki.
- 5) To'yga borsang burun bor, burun borsang o'rin bor.
- 6) To'yga borsang to'yib bor, yomonliging qo'yib bor.
- 7) To'yga - qo'shiq, azaga - yig'i.
- 8) To'yganga - to'y, to'ymaganga - tomosha.
- 9) To'ylikning to'ycha tashvishi bor, uylikning uycha tashvishi bor.
- 10) To'yning bo'ldi - bo'ldisi qiziq.
- 11) O'g'ilning to'yi - o'yin, qizning to'yi - qiyin.
- 12) Qo'y semizi - qo'ychidan, to'y tamizi to'ychidan.
- 13) Har kim to'ygan to'yini maqtar.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kognitiv tilshunoslik obyekti inson ongi, tafakkuri va uning mental jarayon va holatlarini birgalikda o'rganish bilan shug'ullanuvchi alohida ilmiy soha sanaladi. U anglash va bilimlar, inson faoliyati davomida olamni anglash jarayonlari haqidagi fandir. Kognitiv tilshunoslikning tayanch tushunchalaridan biri bu konsept hisoblanadi. Konseptlar xalqning ongida jamoa merosi sifatida, uning ma'naviy mulki, madaniyati sifatida namoyon bo'ladi. Aynan jamoa ongi (fikri) konseptning yashovchanligini ta'minlovchi muhim vositalardan biri sanaladi. Ko'rib chiqilgan tahlillar natijasida shuni aytish mumkinki, ikkala madaniyatda ham to'y konsepti muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ingliz urf-odatlarining bajarilishiga qat'iy turishi, o'zbek milliy urf-odatlari o'z o'rnini yo'qotmaganligi bilan ajralib turadi. To'y konsepti juda keng tushuncha bo'lib, lisoniy manzarada turli leksik, paremiologik va sintaktik vositalarni ham o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N. Qurbonnazarovanning Surxondaryo vohasi to'y marosimi etnografizmlarining semantik va lingvomadaniy tadqiqi. - Termiz, 2021. - B - 15.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 4-jild. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. - 608 bet- 229b.
3. Pirnazarova D. A. (2022). Zamonaviy tilshunoslikda konsept tushunchasi. Tafakkur manzili, (146-148 b)
4. Odilov A.A. (2021). Lingvokulturologiya fanining yuzaga kelish tarixi. Scientific progress, volume 2, (page 1376-1379).
5. Tohir Malik (2017) Teng - tengi bilan baxtlidir. Sharq-ziyo-zakovat nashriyoti, 2017 (495, 5).

